



## O‘ZBEK ADABIY TILINING SHAKLANISHIDA BOSHQA TILLAR ISHTIROKI

*Xasanova Maxfuza Saxibovna*

*Andijon mashinasozlik instituti*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o‘zbek adabiy tiliga boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarni ham so‘zlashuv tili, ham kitobiy til orqali o‘zlashib kirib kelganligi, hamda o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibida o‘zbekcha – umumturkiy shu bilan bir qatorda, tojikcha-forscha, arabcha, ruscha-evropacha, xitoycha o‘zlashgan so‘zlarning ishlatilishi ko‘rsatiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *O‘zlashgan so‘z, fors-tojik, arab, mug‘ul, rus, uyg‘ur tillari, o‘zbek adabiy tili.*

### ANNOTATION

*In this article, the words borrowed from other languages were introduced into the Uzbek literary language both through colloquial and literary language, and the vocabulary of the Uzbek literary language includes Uzbek - common Turkic as well, the use of Tajik-Persian, Arabic, Russian-European, Chinese borrowed words is shown.*

**Key words:** *Borrowing word, Persian-Tajik, Arabic, Mongolian, Russian, Uyghur languages, Uzbek literary language.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье заимствованные слова из других языков, были введены в узбекский литературный язык как через разговорный, так и через литературный язык, а словарный состав узбекского литературного языка включает в себя и узбекско-общетюркский язык. Показаны арабские, русско-европейские, китайские заимствованные слова.*



**Ключевые слова:** *Заимствованные слова, персидско-таджикский, арабский, монгольский, русский, уйгурский языки, узбекский литературный язык.*

O‘zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyot davriga nazar tashlasak, o‘zlashgan so‘z va shakllar turli davrlarda turlicha ijtimoiy sabablar bilan kirib kelgan. O‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibidagi so‘zlar tarixiy shakllanishi jihatidan faqat turkiy tillarga xos bo‘lmay, balki fors-tojik, arab, mug‘ul, rus, uyg‘ur tili orqali xitoy tilidan kirib o‘zlashtirilgan so‘zlardan iboratdir. O‘zbek adabiy tiliga boshqa tillardan kirgan so‘zlar ham so‘zlashuv tili, ham kitobiy til orqali o‘zlashgan. Agar bu fikrni arabcha so‘zlarga nisbatan qo‘llasak, adabiy tilimizga arabcha so‘zlar ko‘proq kitobiy til va tojik-fors tili orqali, shuningdek, og‘zaki nutq orqali kirib o‘zlashgan. Ayrim o‘zlashgan so‘zlar tilimizga shu darajada singib ketganki, uning qaysi tildan kirib o‘zlashganini aniqlash juda qiyin. Masalan: o‘zbek tilidagi *lab, navkar, gul, shoti, imlo, fe‘l, sinf, idora, daryo* kabilar. Qadimgi turkiy yodgorliklarda “lab” so‘zi o‘rnida *tutak // dudaq* ishlatilgan. Buning dudaq variant o‘g‘uz guruhiga kiruvchi tillarda keng qo‘llaniladi. “Navkar” so‘zi barcha lug‘atlarda tojikcha-forscha so‘z deb izohlangan. “Navkar” so‘zi mo‘gul tilining qadimgi so‘zlaridan bo‘lib, “*askar, xizmatkor, kuyov jo‘ralari*” singari ma‘nolarda ishlatiladi. “Gul” so‘zi tojikcha-forscha bo‘lib, uning turkchasi *chekak*dir. “Shoti” so‘zi o‘zbek tiliga uyg‘ur tili orqali xitoy tilidan o‘tib, Farg‘ona vodiysidagi hamma shevalarda ishlatiladi. “*Imlo, fe‘l, sinf, idora, daryo*” so‘zlari arabchadan kirgan. Javon – shqaf, qomot-javon, qiyoslang, uyg‘ur tilida *javang* – polqa. Bu so‘z uyg‘ur tili orqali xitoy tilidan o‘zlashgan (*javang > javon*). O‘zlashgan so‘zlar tilimizda tovush va ma‘no jihatdan o‘zgartirilib qo‘llanishi ham mumkin. Masalan: sarjin – uzunlik o‘lchovi ruscha *сажень* (2-2.5 metrga teng); patnus – ruscha *поднос*; darmon o‘zbek tilida, asosan, kuch – quvvat ma‘nosida, shuningdek, dori va ko‘chma madad, tayanch ma‘nolarida ishlatiladi. *Axmar* – kishi ismi, arabcha – *qizil*. *Bariya* – ayollar ismi, arabcha *bariyya* – cho‘l, sahro va sh.k. [1] O‘zlashgan so‘zlarning ma‘lum qismi davr o‘tishi bilan o‘rnini boshqa so‘zlarga beradi va muayan til



lug‘atidan arxaik yoki tarixiy so‘z sifatida chiqib ketadi. Masalan,ilm-fanga oid juda ko‘p arabcha atamalar 1940 yilgacha “ internatsional”atamalar bilan almashtirildi. Bu xarakat 1989 yilgacha,yani o‘zbek tiliga davlat maqomi berulgunga qadar tez suratlar bilan davom etdi. O‘zbekcha so‘z va atamalarni almashtirish masalasiga, xususan,ruslashtirishga ijobiy masala,progress deb qaralgan bo‘lsa ham, aslida tilimiz tabiatini yoqotishga, uning o‘zligini unitishga yaqinlashtirib qo‘yilgan edi. O‘zbekiston jumhuriyati davlat tili haqidagi qonunning 19-moddasida: “ O‘zbek xalqining ilm – fan tilini takomillashtirish uchun o‘zbek tilida ilmiy-texniq hamda ijtimoiy-siyosiy atamalarni yaratish va rivojlantirish ta‘minlanadi”, - deyilgan. Keyingi paytlarda jumhuriyatimizda chiqadigan ro‘znoma, haftalik,oynomalarda, radio va oynaijahonda so‘z atama va iboralarni qo‘llashda har xillik yuz bermoqda.Shu bilan birga, so‘z qo‘llashga bag‘ishlangan maqolalarda ham bir-biriga zid fikrlar aytilmoqda. Quvonarlisi shuki,ko‘pchilik maqola mualliflari tilimizning tabiatini hisobga olgan holda ish tutmoqda. So‘z va atamalar ishlatish erkin bo‘lishi kerak. Yaqin – yaqingacha *domla* – o‘qituvchi ma‘nosida, *faol* – aktiv, *talaba* – student, *xonadon* – kvartira, *bekat* – stantsiya,ostanovka; *reja* – plan, *foiz* – protsent, *taomnoma* – menyu, *tashrifnoma* – vizitnaya kartochka, *badantarbiya* – fizkultura kabi so‘zlarni ishlatishga qarshilik qilib kelindi. O‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibidagi o‘zlashtirilgan so‘zlarni taxminan quyidagi guruxlarga bo‘lish mumkin:

- 1.Tojikcha so‘zlar
- 2.Arabcha so‘zlar
- 3.Mo‘g‘ilcha so‘zlar
- 4.Xitoycha so‘zlar
- 5.Ruscha – yevropacha so‘zlar

O‘zbek va tojik xalqlari juda uzoq davrlardan beri yonma – yon yashab, bir – birlari bilan iqtisodiy – ijtimoiy va madaniy munosabatda bo‘lib kelmoqda. Ular o‘tmishda birgalikda yirik qurilish inshootlarini yaratganlar,dushmanlarga qarshi



jang qilganlar, oilaviy hayot kechirganlar va madaniy yodgorliklardan hamkorlikda foydalanganlar. B. G'.G'ofurovning yozishicha, o'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi yaqinlik milodiy XI asrdan boshlangan.[2] Ikki xalq o'rtasidagi bu ijtimoiy aloqalar bizning davrimizda yanada mustahkamlandi. O'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va yaqinlik ularning tillariga ta'sir etmay qolmadi. Natijada tojik tilidan o'zbek tiliga ko'pgina so'z, so'z shakllari va turli iboralar o'tib o'zlashdi. Shu bilan birga o'zbek tilidan tojik tili va uning shevalariga ham ancha so'z va iboralar, affikslar kirib kelgan.

Ma'lumki, IX asr oxiriga kelib, O'rta Osiyoda arablar hukmronligi susaya boshlaydi. Ana shu davrda poytaxti Buxoro bo'lgan samonilar davlati barpo bo'ladi. Samoniylar davlatining podshohi Ismoil Ahmad Samoniy ( 874-907) va uning avlodlari 999yilgacha hukmronlik qiladilar. Bu davrda tojik – fors adabiyoti rivojlanadi. Tojik – forselat adabiy tili ham shaklanib, mamlakatning rasmiy tiliga, she'tiyat tiliga aylanib, shuhrat topgan edi. Tojik – fors adabiy tili bilan bir qatorda ilm – fan tili bo'lmish arab tili keng tarqalgan edi.

Shunday qilib tojik – fors tili X – XV asrlarda juda ko'p elatlarning adabiy tili bo'lib xizmat qilib kelgan. Hatto ulug' Navoiy yashagan davrda – Xurosonda ham tojik – fors an'anasi kuchli edi. O'zbek adabiy tiliga tojik – fors tilidankirgan so'zlar miqdori mumtoz adabiyotimiz nomoyondalari asarlarida o'ziga xosdir. Masalan, Navoiy asarlarida ko'proq, Bobur, Muxammad Solih, Hoja, Majlisiiy, Abulg'ozii Bahodirxon asarlarida nisbatan oz. Lutfiy, Sakkokiy, Atoyi kabi Navoiy zamondoshlarining asarlarida ham o'zlashgan so'zlar o'z qatlamga nisbatan ozdir. Tojikcha so'z va shakllarning ishlatilishida ma'lum uslubiy maqsad va o'zicha ijtimoiy sabablar bo'lgan bo'lishi mumkin. Masalan, Navoiy turkiy nom bilan atalgan eski o'zbek tilini tojik tili darajasidagi adabiy tilga tenglashtirishni maqsad qilib ko'ygani edi. U o'zining “ Xamsa”, “ Chor devon”, “Majolisun nafois”, “ Mezonul avzon”, “ Mahbubul qulub”, “ Muhokamatul lug'atayn” va sh.k. o'ttizdan ortiq asarlari bilan o'zbek adabiyoti va o'zbek adabiy



tilining shuhratini jahonga yoydi. Xo'sh, Navoiy bu asarlarini yozishda adabiy tilni qaysi manbalar hisobiga boyitdi? Taniqli navoiyshunos Alibek Rustamovning fikricha, Navoiy eng ko'p foydalangan va eng boy manba turkey lahjalar bo'ldi. Navoiy asarlarida uchraydigan tojikcha va arabcha so'zlar Navoiy davridagi ziyolilar tilida mavjud bo'lgan deb tahmin qilsa bo'ladi. Chunki, og'zaki tilda ishlatilmasligi aniq bo'lgan o'zga til elementlari Navoiy tilida kam uchramaydi. Turkiy lahjalardagi lug'aviy va grammatik elementlar Navoiy asarlarida chegaralanmagan holda, tojik va arab tillariga oid elementlar chegaralangan holda o'tgan deyish mumkin. Badiiy ijoddagi ikki tillilik masalasi esa XIV asrdan to XX asrgacha davom etib keldi. Mashhur "Muhabbatnoma" dostoning muallifi Xorazmiydan to Hamza, Fitrat, Ayniygacha bo'lgan yozuvchilar ikki tilda ijod etganlar. O'zbek adabiy tili lug'at tarkibida arab tilidan o'zlashgan so'zlar ham mavjud. Arablar XII asrning ikkinchi yarmi va XIII asrda O'rta Osiyoni bosib olganlaridan keyin islom dini bilan birga arab yozuvi ham ommalasha boshlagan. Maktab, madrasa, diniy va idora ishlarida arab tilining mavqeyi kuchaydi. Arabcha so'z va iboralar o'zbek adabiy tiliga kitobiy va so'zlashuv tili orqali ham o'zlashgan. Arablar O'rta Osiyoga kelganlaridan keyin turkiy, uyg'ur, xorazmiy, so'g'd yozuvlarini siqib chiqardi va ularning o'rniga arab yozuvi ishlatila boshladi. Arab tili ilm-fan tiliga aylandi. Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy kabi olimlar o'z asarlarini ana shu tilda yozdilar.[4]

Turkiy tillar bilan mo'g'il tilining kelib chiqishiga nazar tashlasak, ularning qarindosh tillar ekanligi ko'rinadi. O'zbek tilining mo'g'il tili bilan aloqasi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. O'zbek tilining lug'at tarkibida XIII asrgacha mo'g'ilcha so'zlar kirib o'zlashgan. Eng qadimgi davrda hozirgi turkiy, mo'g'il tillari oltoy tili oilasi tarkibiga kirgan. Ular bir-birlariga yaqin lahjalarda so'zlashganlar. Oltoy oilasiga kirgan tillar guruhlar u vaqtda xali umumiy edi. Til taraqqiyotining keying davrlarida turkiy va mo'g'il tillari o'zaro ajralib alohida taraqqiy etganlar. Shuning uchun turkey va mo'g'il tillari o'rtasida ayrim fonetik



farqlarni hisoblamaganda, bir – birlariga o‘xshash so‘zlar anchagina. Masalan, aka//axa, xotin//xatan, ovsin//avisan, g‘unajin//g‘unj, manglay//magnay, chiroy//tsaray... O‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibida uyg‘ur tili orqali xitoy tilidan o‘zlashgan so‘zlar ham uchraydi. O‘zbek va uyg‘ur xalqlari tillarining tashkil topish jarayoni ko‘p jihatdan bir-birlariga o‘xshaydi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganimizda, boshqa turkiy tillarga nisbatan til xususiyatlariga ko‘ra o‘zbek va uyg‘ur tillari juda yaqin turadi Chunki bu ikki til elat tillari bo‘lib shakllanishida bir manba – qarluq qabilalar uyshmasi tili – laqjasi asos bo‘lgan edi. Akademik K.K. Yudaxin: “ O‘zbek va uyg‘ur xalqi orasidagi madaniy aloqalar bizga qadim zamonlardan ma‘lum. Qadimgi turk adabiyoti yodgorligi “ Qutadg‘u bilig‘ ning mashur bo‘lgan uch qo‘lyozmasidan biri Namanganda topilgan... Namanganlik Mashrab ( XVIII asr) asarlari o‘zbeklar orasida tarqalgani kabi uyg‘urlar orasida ham keng qo‘lamda tarqalgan edi. Hozir ham uyg‘urlar Ergashtom bilan Qashqar yolidagi devonni Mashrab nomi bilan ataydilar. O‘zbeklar va uyg‘urlar orasidagi boy madaniy aloqa va umumiylikni ko‘rsatuvchi misollarni ko‘plab keltirish mumkin”, - deb yozgan edi. [5]

Uyg‘ur tili orqali xitoy tilidan o‘zlashgan barcha so‘zlar o‘zbek adabiy tili va shevalarida qo‘llanadi. Masalan: *basay* – ovqatga solinadigan ko‘kat turi. Xitoy tilida *baytsay*. Bu so‘z uyg‘ur tilida besey shaklida ishlatiladi. Say- turpdan tayorlangan salat , uyg‘ur tilida sey samsa – ko‘k samsa. *Jusay* – hushbo‘y, ovqatga soladigan va garnir tarzda iste‘mol qilinadigan ko‘kat. Uyg‘ur tilida *jusey*- hushbo‘y piyoz. Shiman – xamiri yuqa kesilgan lag‘mon. Uyg‘ur tilida shimen, Xitoycha Simyan... [6]

O‘zbek tili lug‘at tarkibining ma‘lum qismini rus tili va u orqali Evropa xalqlari tillaridan kirgan so‘zlar tashkil qiladi. O‘zbek va rus xalqi Oktabr inqilobidan ilgari ham iqtisodiy, madaniy hayotda o‘zaro munosabatda bo‘lib kelgan. O‘zbek va rus xalqlari o‘rtasidagi munosabatlar XIX asrning II yarmiga kelib, y‘ani O‘rta Osiyo rus mustamlakachilari tomonidan istilo qilingandan keyin



keng quloch yoydi . Natijada o‘zbek tilining lug‘at tarkibiga savdo, transport, moliya, pochta-telegraf, sanoat, harbiy, ma‘muriy, uy anjomlari, tabobat, san‘at adabiyot va boshqa sohalarga oid ko‘pgina so‘z va atamalar o‘zlasha boshlagan. Bu so‘zlarning ko‘pchiligi ruscha va u orqali o‘zlashgan Evropa xalqlarining tiliga mansubdir. Masalan: poyezd, vagon, vokzal, pochta, telegraf, konfet, adres, zavod, fabrika, mashina, bank, doctor, feldsher, gazeta, general, gubernator, fonar, sud, soldat, pech, lampa, podnos, tarelka, kartoshka... [7]

O‘zbek tili leksikasiga rus tilidan kirgan so‘zlarning aksariyati ot turkumiga kiruvchi so‘zlar va qisman nisbiy sifatlardan iborat bo‘lgan. Yuqorida keltirilgan so‘zlar o‘zbek tilida aynan, fonetik o‘zgarishlar bilan ishlatilib kelingan. Ayniqsa, rus tilidan kirgan so‘z-atamalar Ulug‘Vatan urushi va undan keying yillarda haddan tashqari ko‘payib ketdi. Bu davrda o‘zbek tilida ilgari ishlatilib kelgan so‘z atamalar ruschasi bilan almashtirilib qo‘llanaverildi. O‘zbek tiliga davlat maqomi berilishi munosabati lan juda ko‘p so‘z va atamalar tilimizning tabiatini hisobga olib, yangilanmoqda va eskleri qaytadan tiklanib keng qo‘llanmoqda. Xullas, o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibida o‘zbekcha – umumturkiy shu bilan bir qatorda, tojikcha-forscha, arabcha, ruscha-evropacha, xitoycha o‘zlashgan so‘zlarning ishlatilishi tilimizning lug‘aviy boy va murakkab jarayonni bosib o‘tganligini ko‘rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. *Абдуллаев Ф.* Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир масалаларига доир. Тил ва адабиёт институти асарлари. Тошкент, 1949, 80-102-б; Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. Тошкент, 1962, 213-220-б; Ҳозирги ўзбек адабий тили. I, Тошкент, 1966, 172-173-б; Ўзбек тили лексикологияси (тўплам). Тошкент, "Фан", 1981, 94-ва ундан кейинги бетлар.
2. Гофуров Б Г История таджикского народа М 1952 стр 99-110
3. *Алишер Навоий.* Муҳокаматул лугатайи. Тошкент. 1940, 46-б. (лотии алифбосида)



4. Фрсйман А. А. Хорезмский язык. Материалы и исслсдованняя. М.—Л., 1951. С. 8.
5. Юдакин К К Ўзбек ва уйгур халқлари тилларидаги яқинлик- II ЎТАМ, I, 1958, 31-6.
6. Уйгурско-русский словарь. М., 1939; Уйгурско-китайско-русский словарь. Пекин, 1952, Раҳимов Т. Р. Китайские элементы в современном уйгурском языке. М., 1970.
7. Хамдамов Ж. Из истории русских заимствований в узбкском языке (вторая половина XIX в.), Ташкент, 1962, стр. 9 — 10; Олим Усмон, Ўзбекистонда рус тилининг илк тарғиботчилари. Тошкент, 1962, 51—55-бетлар.